

Date: 9<sup>th</sup> April-2026

## YANGI DAVR YOSHLARI DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Avazova Xushro‘ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotasiya.** Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning falsafiy tahlilini taqdim etib, yoshlar uchun zamonaviy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, madaniy va ma‘naviy tarbiyani kuchaytirish, ijtimoiy faoliyatni rag‘batlantirish va innovatsion fikrlashni rivojlantirish kabi islohotlarning maqsad va vazifalarini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, maqola yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda insonparvarlik, erkin fikrlash va milliy g‘urur kabi falsafiy asoslarga bag‘ishladi.

**Kalit so‘zlar:** Zo‘ravonlik va shafqatsizlik, dunyoqarash, islohotlar, madaniy tarbiya, insonparvarlik, erkin fikrlash, amaliy islohotlar, jamiyat.

Yoshlar — har qanday jamiyatning kelajagi va rivojlanishining asosiy kuchidir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar masalalari davlat siyosatining markazida bo‘lib, yoshlarning fikrlash tarzi, qadriyatlari va ijtimoiy faolligi mamlakat taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan islohotlar bir qator maqsadlarni ko‘zlaydi:

1. Ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish;
2. Yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan ta‘minlash va ularni global miqyosda raqobatbardosh qilish;
3. Ta‘lim sifatini oshirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy ta‘lim metodlarini qo‘llash;
4. O‘zbek milliy qadriyatlarini yosh avlodga singdirish, ularni o‘z tarixiga, madaniyatiga va an‘analariga hurmat bilan qarashga o‘rgatish.
5. Millatiga nisbatan g‘urur his qilishlarini ta‘minlash va ularni madaniy merosimizni o‘rganishga undash;
6. Yoshlarni jamiyatda faol ishtirok etishga, ijtimoiy mas‘uliyatni his qilishga undash.
7. Ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, volontyorlik faoliyatida qatnashish orqali yoshlarning mas‘uliyatini oshirish;
8. Yoshlarni innovatsion fikrlashga, muammolarni yechishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga o‘rgatish.

Bu jarayon, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Falsafiy asoslar yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda asos bo‘lib, nafaqat har bir yosh balki inson o‘zligini anglash va o‘z potensialini ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Insonparvarlik falsafasi yoshlarni shaxs sifatida hurmat qilish va ularga erkinlik berish g‘oyasini o‘z ichiga oladi. Bu yoshlarni jamiyatda faol ishtirok etishga



Date: 9<sup>th</sup> April-2026



undashda muhimdir. Yoshlarni erkin fikrlash va tanqidiy munosabatda bo'lishga o'rgatish, ularning dunyoqarashini kengaytiradi va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi. O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosiga hurmat, yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy identitetini shakllantirishda muhim bo'lib, bu o'z navbatida, yoshlarni tarixiga, urf-odatlariga va madaniyatiga nisbatan mas'uliyatli qilishga yordam beradi. Amaliy islohotlar O'zbekistonda yoshlar dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan islohotlar ham amalga oshirilmoqda:

1. Ta'lim sohasida islohotlar: innovatsion ta'lim metodlari va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, o'quv dasturlarini yangilash, ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning malakasini oshirish va yoshlarning ta'lim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash;

2. Ijtimoiy loyihalar: yoshlar uchun ijtimoiy dasturlar, grantlar va stipendiyalar orqali o'z qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatlari yaratish orqali loyihalar yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga rag'batlantiradi;

3. Madaniy tadbirlar: Yoshlar o'rtasida madaniy merosni targ'ib qilish, ijodiy musobaqalar va festivallar o'tkazish, orqali yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga va ularga milliy madaniyat bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qilish;

4. Psixologik va ma'naviy qo'llab-quvvatlash: yoshlarning ruhiy salomatligini ta'minlash va ularni stress va boshqa psixologik muammolardan himoya qilish maqsadida psixologik yordam ko'rsatish dasturlari ishlab chiqilmoqda;

5. Yoshlarning psixologik salomatliklari ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga ta'sir qilishi;

6. Karyera va ishga joylashish: yoshlarni ishga joylashish va karyera rivojlantirishga tayyorlash orqali boshqa treninglarda ishtirok etish, malakali mutaxassislar bilan muloqot qilish va amaliyot o'tash imkoniyatlarini yaratish;

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar masalalari davlat siyosatining markazida bo'lib, yoshlar uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, ularning o'z qobiliyatlarini namoyish etish va jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini oshiradi. Yoshlar niholga o'xshaydi, ularning kelajakda qanday bo'lishi jamiyat ma'naviy-marifiy muhitiga bog'liq. Hozir eng dolzarb vazifa sog'lom, ma'naviy barkamol, siyosiy etuk, huquqiy teran, xalq-millat udum-analariga sodiq, Vatan barqarorligini taminlashga qodir, yurtparvar, mehnatsevar, jasoratli va shijoatli, irodali yoshlarni tarbiyalashdir. Manaviy-axloqiy tarbiya inson kamolotining eng muhim omillaridan biridir.

Manaviy-marifiy ishlarni jonlantirish, axloqiy qadriyatlarni tiklashda respublikada faollik korsatayotgan milliy madaniy markazlarning faoliyati ko'p islohotlar talab qiladi. Madaniy-ma'rifiy maskanlar muzey, kutubxona, klub, istirohat bog'lari, madaniyat saroylari, xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bolgan tashkilotlar faoliyati hali davr talabiga to'la javob berayapti deb aytish qiyin. Masalan: teatrlarda qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimiz, yosh avlod kamoloti bilan bog'liq sahna asarlari juda kam. Kino san'ati sohasida milliy ma'naviyatni aks ettiruvchi filmlar, ayniqsa, bolalarbop filmlar kam yaratilmoqda. Radio va zangori ekran orqali berilayotgan sharqona ertak, rivoyat

Date: 9<sup>th</sup> April-2026

yoki boshqa asarlar juda oz. Kutubxonalarining faoliyati, va olib borilayotgan tarbiyaviy, marifiy ishlarni davr talabi, ayniqsa yoshlarning manfaati, ehtiyoji, qiziqish, intilishini hisobga olgan holda uyushtirish lozim. Buning uchun kutubxona, muzey, madaniy ma'naviy muassasa va tashkilotlar zamonaviy texnologiya va axborot tarmoqlari, internet vositalari bilan to'la ta'minlanishi faqat o'quv maskanlari bilan emas, balki turli jamoatshilik tashkilotlari, oila, mahalla, ayniqsa Yoshlar ittifoqi yoshlar tashkiloti bilan uzviy bog'liq holda olib borish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ibrohimovich A. H. MODERN FACTORS FOR RAISING STUDENT-YOUTH INNOVATIVE THINKING IN THE HIGHER EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. –2023. –T. 15. –C.202-206.
2. Abdurahmonov H. I. CHARACTERISTICS OF FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN SOCIETY //Scientific Bulletin of Namangan State University. –2020. –T. 2. –No. 7. –C. 161-167
3. Ibroximovich A. K. INNOVATIVE THINKING AND ITS FORMS AND TYPES OF MANIFESTATIONS. European Scholar Journal, 3 (5), 38-41 [Электронный ресурс].
4. Anvarovich P. A. et al. SUN'IY INTELEKKTNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI, FOYDALI VA ZARARLI JIHLARI //PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOY TADQIQOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH. –2024. –T. 3. –No. 2. –C. 7-13.

